

## KORPORATIV IJTIMOY MAS'ULIYATNING XALQARO STANDARTLARI

Ibragimov G`G`

*Ilmiy rahbar TDIU "Innovatsion menejment" kafedrası dotsenti PhD., dots.*

**Mahmudova E`zoza Rustam qizi**

*TDIU Kb-61 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada korporativ ijtimoiy mas'uliyatning o`rni va uning ahamiyatini ochib berishga qaratilgan. Unda, korporativ ijtimoiy mas'uliyatning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini va ushbu amaliyotlarni yanada samarali bajarish yo'llarini bo'yicha hulosalar shakllantirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *korporativ ijtimoiy mas'uliyat, barqaror rivojlanish, ekologik mas'uliyat, ijtimoiy adolat, iqtisodiy islohotlar, qonunchilik, yoshlar demografiyasi, davlat-xususiy sheriklik, raqobatbardoshlik, ekologik standartlar, ijtimoiy muammolar.*

Dunyoda hozirgi globallashuv sharoitida atrof-muhitning ifloslanishi, ijtimoiy xavfsizlik, inson huquqlarining buzilishi, qashshoqlikka qarshi kurashish zarurati, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining sifatli ta'lim olishini ta'minlash vazifasi kabi muammolar mavjud.

Davlat tuzilmalari har doim ham bu kabi muammolarni samarali va mustaqil hal qila olmasligi sababli, korporativ ijtimoiy mas'uliyat tushunchasi ommalashgan.

"Korporativ ijtimoiy mas'uliyat - korporativ boshqaruvning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu konsepsiya barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlari tizimida aks etadi hamda kompaniya strategik rejalashtirish va boshqarishning bir bo'g'ini hisoblanadi, jamiyat bilan doimiy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

Konsepsiyaning mohiyati shundan iboratki, har qanday ishlab chiqarishga oid va iqtisodiy qarorlar ularning kompaniya va jamiyat uchun ijtimoiy va ekologik oqibatlarini inobatga olingan holda qabul qilinadi. Bunda korporativ ijtimoiy mas'uliyat kompaniyaning strategik rivojlanish, ishchanlik obro'-e'tiborini va raqobatbardoshligini mustahkamlash hamda uning bozor kapitallashuvini oshirishda kuchli omil bo'lib xizmat qiladi.<sup>34</sup>"

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat bugungi kun kompaniyalarining faoliyatida muhim o`rin tutadigan kontseptsiya bo'lib, uning ahamiyati O'zbekistonda ham sezilarli darajada ortib bormoqda.

O'zbekistonda korporativ ijtimoiy mas'uliyatni rivojlanishi xorijiy investorlar va xalqaro tashkilotlar hamkorlik qiladigan kompaniyalardan ijtimoiy va ekologik javobgarlikni oshiradi. Yani, ekologik muammolar, jumladan suv resurslarini boshqarish, havo sifatini yaxshilash va chiqindilarni qayta ishlash kabi masalalar kompaniyalardan korporativ ijtimoiy mas'uliyat amaliyotlari doirasida katta

<sup>34</sup> Ashurov Z.A. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat. (Darslik). - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022, 164 bet. 5-6 betlar.

ma`suliyat talab qiladi.

KIM sohasidagi xalqaro standartlar - bu tijorat tashkilotlarini korporativ ijtimoiy mas`uliyat sohasidagi faoliyatini tartibga solish asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

KIM ni standartlashtirish - nisbatan yangi amaliyot bo`lib, xalqaro hamda milliy darajada samarali amaliyot sifatida ko`rsatiladi.

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti - ISO standartlarni ishlab chiqish va qabul qilish bilan shugullanadigan nodavlat tashkilot, u Londonda 1946-yilda ta`sis qilingan.

ISO 26000 - bu kompaniyalardan tortib nodavlat tashkilotlar yoki fondlargacha bo`lgan har qanday muassasa tomonidan amalga oshiriladigan korporativ ijtimoiy javobgarlikni standartlashtirish orqali korporativ ijtimoiy javobgarlik to`g`risidagi qoidalarni birlashtirishga urinishdir.

ISO 26000 ning xarakteristikasi ko`ngillilikka asoslangan bo`lsa-da, u korporativ ijtimoiy javobgarlik bilan bog`liq har xil nomdagi qoidalarni birlashtirishga va qoidalar asosida yaratilgan tizimning xabardorligini ta`minlashga harakat qiladi<sup>35</sup>.


1-jadval.

ISO 26000 dan foydalanuvchi kompaniyalar haqida ma`lumot<sup>36</sup>

№	Sanoat sohasi	Kompaniyalar
1	Neft-gaz	Shell, BP, Gazprom
2	Farmatsevtika	Johnson & Johnson
3	Chakana savdo	Walmart, Carrefour
4	Axborot texnologiyalari	Google, Microsoft

1-jadvalda ISO 26000 dan foydalanuvchi kompaniyalar misol qilib keltirilgan.

Ushbu standartni qo`llovchi kompaniyalar quyidagi o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`ladi, ularni boshqa kompaniyalarda topish qiyin bo`lishi mumkin:



1-rasm. ISO 26000 dan foydalanuvchi kompaniyalarning o`ziga xos xususiyatlari<sup>37</sup>

<sup>35</sup> <https://www.sertifikasyon.net/uz/detay/iso-26000-sosyal-sorumluluk-yonetim-sistemi-belgesi-nedir/>

<sup>36</sup> <https://iso26000.info/all-countries/>

Korporativ ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirish hamda uning xususiyatlarini tahlil qilish orqali quyidagilarni xulosa qilish mumkin. Birinchidan, korporativ ijtimoiy mas'uliyatni korporativ tuzilmalar tomonidan samarali amalga oshirilishiga erishishda davlat tomonidan korporativ tuzilmalar bevosita va bilvosita qo'llab-quvvatlanishi zarur.

Ikkinchidan, korporativ ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirishda korxonaning korporativ boshqaruv organlari tomonidan korporativ ijtimoiy mas'uliyat strategiyasini samarali ishlab chiqish zarur.

Uchinchidan, korporativ ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirish ko'p tomonlama manfaatli amaliyot ekanligiga e'tibor qaratish lozim. Korxonalar tomonidan korporativ ijtimoiy mas'uliyatning bajarilishi ijtimoiy, ekologik hamda iqtisodiy samaradorlikka erishishga yordam beradi. Shu sababli davlat mazkur amaliyot bo'yicha huquqiy bazani shakllantirishi, tashkiliy hamda qo'llabquvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq.

Hulosa qilib aytganda, bugungi global iqtisodiyot sharoitida korporativ ijtimoiy mas'uliyat faqat biznesning ixtiyoriy majburiyati emas, balki raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanishning muhim omiliga aylandi. Biroq, O'zbekistonda korxonalar hali ham ekologik javobgarlik, xodimlar huquqlari va mehnat sharoitlari, korrupsiyaga qarshi choralar, iste'molchilar huquqlari hamda jamiyat va mahalliy hamjamiyatlarga ta'siriga yetarlicha e'tibor qaratishmayabti.

Fikrimizcha, bu borada, O'zbekistonda huquqiy va me'yoriy bazani takomillashtirish, ISO 26000 ni milliy standart sifatida tan olinishi hamda uni O'zbekistonning amaldagi me'yoriy hujjatlariga integratsiya qilish zarur.

Shu bilan birga, O'zbekistonda ISO 26000 tamoyillarini huquqiy jihatdan mustahkamlash va tizimli baholash mexanizmini yaratish maqsadida milliy sertifikatlash tizimini ishlab chiqish zarur. Ushbu tizim korxonalarni ijtimoiy mas'uliyat darajasi bo'yicha baholash va standartlarga muvofiqlikni tasdiqlovchi sertifikatlar berish orqali ularning ijtimoiy, ekologik va etik majburiyatlarini rasmiy darajada belgilashga xizmat qiladi. Natijada, korporativ ijtimoiy mas'uliyatni qonunchilik doirasida tartibga solish bilan birga, biznes subyektlarini xalqaro standartlarga muvofiq ishlashga rag'batlantirish va barqaror rivojlanish jarayonlariga integratsiyasini jadallashtirish imkoniyati yaratiladi. Faqat shu yo'l bilan mamlakat xalqaro investitsiyalar, barqaror iqtisodiyot va ijtimoiy taraqqiyot sari dadil qadam tashlashi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Ashurov Z.A. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat. (Darslik). - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022, 164 bet. 5-6 betlar.

2. I.f.d., prof. Samariddin Elmuradov, Safarali Xolmurodov O'zbekiston

Respublikasi Bank-moliya akademiyasi KORXONALARDA KORPORATIV IJTIMOIV MAS'ULIYATNI AMALGA OSHIRISH. International Journal of Finance and Digitalization www.ijfd.uz ISSN: 2181-3957 Vol. 2 Issue 01, 2023

3. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat — u qanday bo'lishi kerak? Malika Sharipova — KIM bo'yicha mutaxassis "CARE CSR konsalting kompaniyasi asoschisi va direktori. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/04/22/social-corporate-responsibility/>

4. <https://www.sertifikasyon.net/uz/detay/iso-26000-sosyal-sorumluluk-yonetim-sistemi-belgesi-nedir/>

5. <https://iso26000.info/all-countries/>